

**BETON VA ASFALT-BETON MATERIALLARIDAN FOYDALANIB YO‘L  
VA YO‘LAKLAR HAMDA KICHIK MAYDONLAR QURISHDA YO‘L  
QO‘YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR**

*Dostonbek Zokirov Zohidjon o'g'li*  
*Andijon Mashinasozlik instituti assistant*

**Annotatsiya:** Maqolada yurtimizni turli joylarida, shaharlarda, tuman va qishloqlarda katta va kichik yo‘l va yo‘laklarni barpo etishda va qayta ta‘mirlashda, yoki yangi qurilayotgan hamda qayta ta‘mirlanayotgan binolarning tashqi xududlarida yangi yo‘l va yo‘laklar, kichik maydonlar qurishda, eski yo‘llarni qayta ta‘mirlash (obodonlashtirish) ishlarini amalga oshirishda qo‘llanilayotgan beton hamda asfalt-beton materiallari ma‘lum vaqt o‘tishi bilan hosil bo‘ladigan yoriqlarni bartaraf etish masalasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** beton, asfalt-beton, yo‘lak, ko‘chat, daraxt, bodyur, lotok.

Ma‘lumki, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish, shaharlar, tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash maqsadida “Yashil makon” umummilliy loyihasi tuzilgan bo‘lib, yurtimizni turli joylarida jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Zamon talablariga javob bera oladigan yangi binolarni barpo etish, eski binolarni qayta ta‘mirlash, katta va kichik yo‘llar hamda maydonlar qurish, yangi ekinzorlar va daraxtzorlarni yaratish kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Bu borada O‘zbekistonda 2 noyabrdan 10 dekabrga qadar daraxt ekish bo‘yicha “Dolzarb 40 kunlik” e‘lon qilingan. Ushbu vaqt mobaynida viloyatlarda bir necha million tup ko‘chatlar katta ekinzor maydonlarda, yo‘l va yo‘laklarning atrofida o‘tkazildi. Mart va aprel oylarida ham ko‘plab viloyatlar daraxt ekish ishlarini to‘xtatmadi, turli xil mevali va mevasiz daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Bugungi kunda o‘tkazilgan daraxtlarning barchasi yashil tusga kirib, shahar va tumanlarni chiroyiga chiroy qo‘shmoqda.

Insoniyat tomonidan yaratilayotgan bunday keng ko‘lamdagi ishlar negizida yurtning taraqqiyotini o‘stirish, xalqning ertangi kunini yaxshilash, farovon hayot kechirish ko‘zlangan. Yurtimizning turli joylarida tarixiy imoratlarini qayta ta‘mirlash va qurish ishlari, ularga olib boruvchi yo‘llarni ta‘mirlash, yangi ko‘p qavatli binolar tiklash yoki qayta jixozlash kabi misollar keltira olamiz. Albatda, yana juda ko‘plab misollar keltirib o‘tishimiz mumkin, har bir qilinayotgan ishlarni insoniyat olamiga foydali tomonlarini va yomon oqibatlariga olib keladigan tomonlarini o‘rganib keyin amalga oshiriladi. Yangi va qayta ta‘mirlanayotgan binolarning atrofida yo‘laklar va maydonlar hosil qilishda, shahar, tuman va viloyatlarni bog‘lab turuvchi yo‘llarni qayta ta‘mirlash, yangi yo‘llar hosil qilishda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan darajada

xatoliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Mavjud daraxtlar yoki yangi o‘tkazilgan daraxtlar atrofi beton va asfalt-beton qorishmalari bilan to‘ldirib yuborilmoqda.

Bir necha yillardan keyin daraxtlarning tanasi kattalashish oqibatida yo‘l va yo‘laklarni yorilib ketishi, bordyurlar, yomg‘ir va tabiiy suvlarni oqib ketishi uchun o‘rnatilgan lotoklar notekkis ko‘rinishga kelib qolishiga sabab bo‘ladi.

Ba‘zi hollarda, tez katta bo‘ladigan daraxtlarning ostki qismida tuproq maydonini yetarli darajada qoldirilmaslik ham yuqoridagi kamchiliklarga sabab bo‘ladi.

Bunday hatoliklarni yurtimizning turli shahar va tumanlarida, yashash punktlarida uchratishimiz mumkin. Bundan keyingi yillarda yangi quriladigan va qayta ta‘mirlanayotgan yo‘l va yo‘laklar, maydonlar tashkil etishda yuqoridagi hatoliklarni yo‘l qo‘ymaslik kerak. Agarda bunday hatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, daraxtlarning ostki qismida tuproq maydoni tashkil etilishi shart. Tuproq maydoni yetarlicha bo‘lmasa, daraxtning yoshiga va tanasining kattalashish yillariga e‘tibor berish kerak. Agar daraxt qisqa yillar oralig‘ida tezda katta bo‘lsa, unda daraxt ostki qismidagi tuproqning diametri (daraxt markazidan beton qatlam, bordyur yoki lotokgacha bo‘lgan masofa) ni kamida 50 sm olgan maqul. Aksincha bo‘lsa, ya‘ni daraxt uzoq yillar oralig‘ida sekin katta bo‘lsa, tuproq diametrini kamida 30 sm olgan maqul. Ba‘zi daraxtlarning tanasi kattalashgan sari daraxt tomirlari yer sirtiga chiqib qolishi ham mumkin (chinor daraxtlari misol bo‘la oladi). Bu holatda ham beton va asfalt-beton yo‘llarni yorilishiga, bordyur va lotoklarni notekkis ko‘rinishga sabab bo‘ladi. Har yili viloyat deputatlar kengashida va respublika Oliy majlisida, viloyat xududlarida yangi bog‘cha, maktab va tibbiy muassasalarni qurishni manzillar ro‘yxatiga kiritiladi. Afsuski ajratilgan yer maydonida daraxt yoki ko‘chatlar mavjud bo‘ladi. Loyiha tashkiloti quriladigan bino xududga shunday optimal joylashtirishni, yong‘in xavfsizligi va boshqa me‘yor talablariga javob berish kerak bo‘ladi. Loyihalananayotgan bino o‘rnida ko‘chat va daraxt bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Daraxtni ko‘pincha ko‘chirish imkoni bo‘lmaydi. Davlat ekologiya qo‘mitasi inspektori daraxtni kesishga yo‘l qo‘ymaydi. Inspektorlar asos sifatida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 yanvardagi 43-son qarori va “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish, kesish hamda daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM” ko‘rsatmoqdalar. Bu o‘z navbatida qurilish muddatini uzayishi yoki Bosh rejaga nisbatan yangi quriladigan bino noqulay qurilishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF №5084, 2021 yil 21 apreldagi «Namangan viloyatida tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroridayam asosiy e‘tibor Namangan shahrining eski shahar hududi infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta‘minlash, shahardagi Yangiariq, Shimoliy Farg‘ona kanali va Namangansoy qirg‘oqlarini obodonlashtirishga qaratilgandir.

Bugun «Namangan yuragi»ning mazkur shohtomirlarida Preziden-timiz maxsus qarorining ijrosi doirasida keng ko‘lamli obodonlashtirish vositasida tozalash,

ravonlashtirish, ta'bir joiz bo'lsa, yoshartirish, navqironlashtirish muolajalari – ishlari jadal davom ettirilmoqda. Cuv tarmog'i qir-g'oqlarida suv filtratsiyasini kamaytirish uchun beton qoplamalar yotqizilmoq-da. Bu qirg'oqlarni ayrim qismlarida daraxt va ko'chatlar mavjud, bo'lib ularni qirqish va olib tashlash yuqoridagi xukumat qaroriga asosan zid keladi. Natijada bu daraxt va ko'chatlar suv tarmog'i qirg'oqlarida qoldirildi. Talab etilgan filtratsiya oldini olish to'la amalga oshmadi.

Qurilishda bunday xolatlarni oldini olish uchun Qurilish vazirligi va Ekologiya qumitasi mutaxassislari tomonidan kerakli me'yoriy qoida va tavsiyalar ishlab chiqishi xozirgi zamonning eng muxim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamasoliyev B., Melikuziev A., Sotvoldiyev O. Research of Factors Affecting the Cylinder-Porshen Group Work Process //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 7. – C. 8-12.
2. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – C. 10-14.
3. Ikromov N. et al. Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 3. – C. 560-563.
4. Mahammadjonov N. et al. YO 'L FREZASI KONSTRUKSIYASINING TAHLILI //Science and innovation in the education system. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 45-49.
5. Tavakkal o'g'li K. I., Rasuljon o'g'li M. A. MODELS FOR CALCULATING THE INTERACTION OF THE SOIL WITH THE PIPELINE //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 514-518.
6. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1064-1070.
7. Ismailov S., Qirg'izboyev B., Bahromov A. PARKING SPACE MANAGEMENT FOR TRUCKS //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 15. – C. 143-147.
8. Bakirov L. et al. GUARANTEE SAFE MOVEMENT BY DESIGNING DRIVER'S WORK MODE THROUGH VEHICLE KEY IN ORGANIZING INTERNATIONAL TRANSPORTATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 154-158.
9. Khushnadbek R. et al. KINEMATIC ANALYSIS OF A NEW GEAR-LEVER DIFFERENTIAL TRANSMISSION MECHANISM WITH SYMMETRICAL DISPLACEMENT OF THE CENTERS OF ROTATION OF THE DRIVEN AND

- DRIVING GEARS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 30-35.
10. Baxtiyorjon o‘g‘li E. A. AVTOMOBIL SHINASINI CAD/CAE TIZIMLARIDA MODELLASHTIRISH. – 2022.
11. Рахмонов Х. Н., Исмаилов С. Т., Амиржонов А. А. СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ НОВОГО ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПЕРЕДАТОЧНОГО МЕХАНИЗМА С СИММЕТРИЧНЫМ ПЕРЕМЕЩЕНИЕМ ЦЕНТРОВ ВРАЩЕНИЯ ВЕДУЩИХ И ВЕДОМЫХ ЗУБЧАТЫХ КОЛЕС И ЕГО МОДИФИКАЦИИ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 4-1 (85). – С. 56-59.
12. Mamasoliyev B. et al. ELIMINATION OF NOISY OPERATION OF DAMAS REAR SUSPENSIONS //Science and innovation in the education system. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 59-63.
13. Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.
14. Bakirov L. Y., Soliyev A. F. TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKAT OQIMINING JADALLIGI VA TARKIBINING O‘ZGARISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 53-55.
15. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.
16. Soliyev A., Raximbek X. TRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKTIV XAVFSIZLIK TIZIMLARINI JORIY ETISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI TAXLILI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 568-574.
17. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохиidinovich, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). МЕРЫ ПО СНИЖЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ АВТОПАРКА. Universum: технические науки, (4-1 (85)), 44-47.
18. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. Universum: технические науки: электрон. научн. журн, 12, 93.
19. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. Вестник Курганского государственного университета, (3 (37)), 96-99.
20. Икромов, Н. А. (2021). ИССЛЕДОВАНИЯ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО МОДИФИЦИРОВАННЫХ ЭПОКСИДНЫХ КОМПОЗИЦИЙ И ПОКРЫТИЙ НА ИХ ОСНОВЕ. Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного

редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии, 59.

21. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. *Academia-an international multidisciplinary research journal*, 10.
22. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(4), 58-62.
23. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). IMPROVEMENT OF PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES OF THERMOREACTIVE AND THERMOPLASTIC POLYMERIC COVERINGS BY PHYSICAL METHODS OF MODIFICATION. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.
24. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. *Современные научные исследования и инновации*, (10), 1-1.
25. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). TECHNIQUE AND INSTALLATIONS FOR ELECTROMAGNETIC TREATMENT IN THE FORMATION OF COMPOSITE POLYMER COATINGS. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 52-55.
26. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 70-72.
27. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 188-198.
28. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икрамов Нурилло Авазбекович (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ РАДИАЦИОННО - ОБРАБОТАННЫХ НАПОЛНЕННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ  $\gamma$  -ЛУЧАМИ. *Universum: технические науки*, (12-1 (81)), 51-53.
29. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1064-1070.
30. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH//SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassaning-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).



31. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH. – 2022.
32. Zokirov D., TO'YINGAN G. I. T. S., QUVURO'TKAZGICHLARINI U. Y. Y. E. R. O. HISOBLASH//SAI. 2022.№ A6 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trassaning-suvga-to-yingan-uchastkalarida-yotqiziladigan-yer-osti-quvuro-tkazgichlarini-hisoblash> (дата обращения: 14.10. 2022).
33. Dostonbek, Zokirov, and Mamasoliyev Bunyodbek. "Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo." Eurasian Research Bulletin 14 (2022): 25-29.
34. Shermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – T. 15. – №. 3. – С. 8-13.
35. Shermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. APPLICATION OF MODERN, EFFECTIVE MATERIALS IN RAIL ROAD REINFORCED BRIDGE ELEMENTS //Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – T. 15. – №. 3. – С. 8-13.